

DOI 10.36074/logos-10.12.2021.v3.05

AVESTO FALSAFIY TA'LIMOTIDA MULKIY MUNOSABATLAR VA IJTIMOY HAMKORLIK ALOQALARINING TAVSIFI

Xudoyberdiyeva Anorabonu Hayotovna

“Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasida assistenti, BuxDU mustaqil tadqiqotchisi
Navoiy davlat konchilik instituti

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

Ijtimoiy stratifikatsiya va ijtimoiy hamkorlik muammolarini o'rganish ijtimoiy fikrning shakllanishi tarixi davomida insoniyatni qiziqtirgan va qadimgi davrlarga borib taqaladi. Bugungi kunda ijtimoiy falsafa fanining muhim fundamental muammosiga aylangan sotsial stratifikatsiya jamiyatdagi murakkab ijtimoiy tabaqalanish jarayonlari, shuningdek aholi sotsial tarkibining dinamikasi qonuniyatlari va mexanizmlarini konkret materiallar asosida kompleks tahlil qilib o'rganishni talab etadi. Insoniyat hayotidagi jamiyatning strukturasi tahlil qilib ko'radigan bo'lsak, uning asosida diniy, etnik, sinfiy, demografik, hududiy birliklarning borligiga guvoh bo'lamiz. Unda istiqomat qilayotgan insonlar esa u yoki bu jihatdan ijtimoiy mavqe, kasbiy daraja, demografik xususiyat va turli xil sotsial guruhlarga mansubligi, bilan sotsial tengsizlikni keltirib chiqaradi.

Stratifikatsiyaviy strukturalarning asosi odamlarning tabiiy va sotsial notengligi ekanligi qadimgi diniy manbalarda ijtimoiy tengsizlikni o'rganish ijtimoiy hamkorlikni o'rganish doirasida jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, mulklari va ularning turmush tarzini o'rganishning umumiy nazariy va uslubiy asoslari yoritib berilgan.

Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto» da ham biz yashab turgan tuproqda buyuk davlat, buyuk madaniyat, buyuk ma'naviyat bo'lganidan guvohlik beruvchi bebaho tarixiy hujjat bo'lib, ming yillar, asrlar davomida ajdodlarimiz uchun ma'naviy ruhiy tayanch, cheksiz kuch-quvvat manbai bo'lib xizmat qilgan. Ushbu asar bugungi kunda mamlakatimizda Yangi O'zbekiston g'oyasini shakllantirishning juda muhim ilmiy-ma'rifiy manbai sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Asarni o'rganish asosida shunday xulosaga kelganki, birinchidan, unda eng qadimgi dunyo ijtimoiy ta'limotlari va ijtimoiy hamkorlik tushunchalari O'zbekiston zaminida ilk bor vujudga kelganligining guvohi bo'lish mumkin, ikkinchidan, unda ilgari surilgan g'oyalari, garchi ularning tarixi 3000 yildan ham qadimiyroq bo'lsada bugungi iqtisodiy islohotlarimiz g'oyalari bilan ramziy ma'noda hamohang ekanligiga ishonch hosil qilish mumkin. Darhaqiqat «Avesto»da uch ezgulik g'oyasi ilgari surilgan bo'lib, ularning birlamchisi halol va unumli mehnat qilish, yaratuvchilik amali eng oliysidir. Kitobda ijtimoiy mehnat taqsimoti g'oyasi ilgari surilib, u qadimgi dunyoda ijtimoiy mehnat taqsimotining real va samarali shakli bu «jamoalar bo'lib ishlash» ekanligi uqtiriladi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning ta'kidlashicha, «jamoalar bo'lib ishlash», «Ijtimoiy hamkorlik» g'oyalari «Avesto»ning eng qimmatli qadriyatlaridan biridir. Kitobda yoshlarning kasb-hunar egallashi, oila qurishi va ularning iqtisodiy teng bo'lishi g'oyalari ham pishiq-puxta ishlangan iqtisodiy ta'limotlardan biri ekanligini alohida qayd etish joizdir.

«Avesto»dagi mulkdor bo'lishlik, mulkdorlik mas'uliyati va manfaati g'oyasi ham, aytish mumkinki, fundamental ishlangan iqtisodiy qarashlardandir. «Avesto» kitobining «Birinchi qo'shig'idayoq zardushtiylik dinining bosh mantig'i, falsafasi

bayon etiladi, ya'ni odamzod hayoti yaxshilik va yomonlik bilan bog'langanligi, uning qaysi birini tanlab, e'tiqod qilib yashashi uning har ikki dunyosini belgilab beruvchi ma'naviy bir omil ekanligi haqida yoziladi; Kitob ana shu ikki narsaning mohiyatini bayon etishdan boshlanadi.

«Ey, hushyorlar!» quloqlaringiz bilan puxta eshitingiz eng ezgu kalomlarni va yorug' niyat bilan – hoh er, hoh ayol- har biringiz nazar tashlangiz, to buyuk hodisa ro'y bermasdan va odamlarimiz so'nggi manzilga yetmasdan ikki yo'ldan birini o'zingizga ixtiyor etingiz-da, bu kalomlarni o'zgalarga ham etkazingiz! Ibtidoda bu ikki tug'ishgan-hamzodlar andisha, kalom va amalda biri- ezgulik, biri-yomonlik o'zaro suhbat qurdilar. Bu ikkidan biri-ya'ni ezgulikni undan ogohlar, yomonlikni esa noogohlar tanladilar».[1]

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov «Avesto»ning 2700 yilligiga bag'ishlab barpo etilgan yodgorlik majmuasining ochilish marosimida so'zlagan nutqida uning ana shu ezgulik bilan sug'orilgan g'oyalarining yashovchanligiga e'tiborni qaratgan edi: «Avesto» bilan tanishar ekanmiz yana bir karra shunga iqror bo'lamizki, bu mangu kitobda ifoda etilgan buyuk g'oyalar, falsafiy hikmatlar o'zining hayotiy mazmuni bilan bizni bugun ham hayratta qoldiradi. Bu haqda gapirganda, men, avvalo «Avesto»ning tub ma'no mohiyatini belgilab beradigan «Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal» degan tamoyilda hozirgi zamon uchun ham behat ibratli bo'lgan saboqlar borligini alohida ta'kidlab o'tmoqchiman.[2]

SHundan kelib chiqib aytish mumkinki, «Avesto»dagi iqtisodiy g'oyalar qandaydir mavhum, quruq fikrlar bo'lmay, balki qudratli moddiy kuchga egadir. «Avesto» haqida gapirilar ekan, u g'oyat keng qamrovli, odamlar hayotining barcha jabhalarini qamrab olgan asar ekanligini ko'rsatib o'tish o'rinlidir.

Asarda iqtisodiy munosabatlar haqida ham ajoyib fikrlar, xususan bizning bugungi siyosatimizga mos keluvchi g'oyalar ham o'z ifodasini topganligi, uning «Mangu kitob» ekanligini ko'rsatib turadi. Unda xususan mulkiy munosabatlar haqidagi fikrlar hayratlanarlidir. Unda mulkdor bo'lishlik yaxshi fazilat ekanligi alohida ko'rsatilgan. Bu fikrni quyidagi g'oyalar tasdiqlaydi: «Kimning uyi bo'lsa, u uysiz bexonumon odamdan yaxshiroqdir. Kimning dunyosi bo'lsa, u hech vaqosi yo'q gadodan afzaldir». [3] Masalaning mohiyati shuki, mulkdor odamlar iqtisodiy jihatdan shunchaki baquvvat bo'lmay, ayni chog'da ular iqtisodiy erkindir, ular o'z faoliyatini o'zi mustaqil belgilydi. Boshqalarga mute bo'lmaydi. Mulkdor odamning qudrati shundaki, unda mulkiy manfaat va mulkiy mas'uliyat uyg'unlashadi. «Avesto»ning bu iqtisodiy g'oyasi keyinchalik juda ko'p buyuk ajdodlarimiz tomonidan rivojlantirildi, boyitildi. Jumladan, Abu Nasr Forobiy «Fozil odamlar shahri» asarida uqtiradiki, «Mulk ortirishda unchalik havf yo'q, ammo uni ehtiyot qilib saqlamoq kerak. Agar boshqa birovlar hisobiga mulk orttirganlar jazolanmasalar, u holda shahar aholisidan insof va shuhrat yo'qoladi. Mulkni ehtiyot qilib saqlab o'z ehtiyoji uchun ishlatsa, bu yomon odat hisoblanmaydi».[4]

Forobiy davom etib yozadiki, «odamlarning mulksiz bo'lib qashshoq yashaganidan ko'ra, mulkdor bo'lib boyroq bo'lib yashagani afzalroqdir». Ko'rinib turibdiki, Forobiy qarashlari «Avesto» g'oyalari bilan g'oyat hamohangdir. Bu «Avesto» keyinchalik ilm-fan va tafakkurga qanchalik ta'sir ko'rsatganini tasdiqlaydi.

Haqiqatda ham tinch va halol mehnat bilan band bo'lgan odam hech qanday buzg'unchilikni, beqarorlikni istamaydi, u o'z mehnati mahsulini olishni ko'zlaydi, pirovard yuqori va unumli samara bo'lishini kutadi, o'z mehnati natijalari orqasidan farovon yashashni orzu qiladi. «Avesto»dagi bunday ezgu g'oyalar bizning sivilizatsiyalashgan davrimiz uchun ham begona emas. Zero, zardushtiylik dini inson ruhini yaratuvchanlikka –mehnatga tayyorlashga qaratilganligi uchun ya'ni inson ruhi

va mohiyatiga aynan mehnat monandligini asoslash bilan ming yillar davomida odamlar qalbini zabt etib keldi, hozir ham u ana shunday ezgulikni targ'ib etib kelayotir. Odam umri juda qisqa, ana shu qisqa muddatda u yaxshilik va ezgulik qilishga ulgurishi va bu bilan har ikki dunyo saodatini topishi lozim.

Ezgulik va yaxshilik qilish uchun kishi mehnat qilishi, o'z qo'llari bilan moddiy ne'matlar barpo etishi darkor. Asarda mehnat qilmaydigan odam qoralanib, bunday odamning uyida olov doimo yonmaydi, hayvonlar yem-xashakka to'ymaydi, uyida noz-ne'matlar yetishmaydi, xotin va farzandlari farovon yashamaydi, uyida xotirjamlik va barqarorlik bo'lmaydi, deb ko'rsatiladi.

Kitobda mehnat qilmaydigan, dangasa odamga nisbatan shunday xitob qilinadi:

«...Mehnat qilmaydigan odam! Sen haqiqatdan ham tilanchilar qatorida, yot eshiklarga ta'zim qilib, abadul-abad bosh egib turajaksan. Haqiqatdan ham sening yoningdan turli xil ziroatlarni olib o'tadilar, bu noz-ne'matlarning barchasi mehnat qilayotgan, to'q va farovon yashayotgan xonadonga nasib qiladi. Abadul-abad shunday bo'lajak!».[5]

Mehnatkash odam oilasida esa uning to'q va farovonligi bois ahloq-odob, insofiymon hukm suradi, ilohiy so'zlar yangraydi, oila baqquvat va barhayot bo'ladi. Ma'lumki, mehnat va uning samaradorligi odamlarning birgalikdagi bahamjihat faoliyati bilan bog'liqdir. «Avesto» asarining muhim, bebaho g'oyalaridan biri ham aynan, odamlarni birlikka, yaxlitlikka, yakdillikka, bahamjihatlikka, halollikka, jamoa bo'lib yashashga da'vat etishidir. Unda individualizm, ayrimlik, xudbinlik, yakkalik qattiq qoralanadi. Ya'ni odamlarni birgalashib ishlashga, jamoa bo'lib, uning hamma a'zolari manfaatlarini ko'zlab harakat qilishni taqozo etgan bo'lsa, ularning tabiat kuchlari oldida o'zligidan kelib chiqqan bo'lsa, ikkinchidan, faqat jamoa bo'lib, birgalashib harakat qilishlarida baraka bo'lgan, mehnat unumdorligi yuqori bo'lgan, odamlar mehnat tarbiyasi va ko'nikmalarini olishgan, tajriba to'plagan va almashishgan. Gap shundaki, zardushtiylik dini mehnatning ijtimoiylikini ilohiylashtirish asnosida inson salohiyati ham, xususan uning mehnat yaratuvchiligini ham islohiylashtirgan. Shunday ma'nodagi inson faoliyati uni ilohiy kuchga yaqinlashtirgan.

«Avesto» asarini mehnat taqsimoti nuqtai nazaridan o'rganish shuni tasdiqlaydiki, bizning ajdodlarimiz bundan 3000 yillar ilgariyoq ibtidoiy, ya'ni tabiiy mehnat taqsimoti darajasidan allaqachon chiqib ketishgan, ular ijtimoiy mehnat taqsimoti asosida iqtisodiyotni tashkil etish va olib borishga o'tishgan. Mehnat taqsimoti dastlab yirik ijtimoiy mehnat taqsimoti asosida rivojlanib borgan, ya'ni aholi chorvachilik dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo ishlari, ip yigirish, to'qimachilik va tikuvchilik, ovchilik kabi mehnat turlari bilan shug'ullanishga ixtisoslashishgan.

«Avesto»dagi ma'lumotlarga ko'ra, balog'at yoshiga yetgan o'smirlar alohida imtihon qilinib undan muvaffaqiyatli o'tganlar ro'zg'or yuritish, oila qurish, oila boshlig'i yoki uy bekasi bo'lishlik huquqi berilgan. Yigitlar ichidan eng iqtidorlilari ajratib olinib, harbiy mashqlarga safarbar qilingan. Ayni chog'da aholi faoliyatini boshqarib turish uchun maxsus kishilar tayinlangan. Bunday mehnat taqsimoti iqtisodiyotning rivoj topib borishiga, ijtimoiy va siyosiy barqarorlik hukm surishiga olib kelgan.

Yuqoridagi tahlildan ko'rish mumkinki, mulkiy munosabatlar va ijtimoiy hamkorlik Avestoda ham muhim yo'nalish sifatida e'tirof etilgan. Ijtimoiy hamkorlik turli xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaq va davlatlar milliy taraqqiyotini belgilaydi, aholining to'q va farovon yashashini shu joydagi tinchlik va barqarorlikning kafolati bo'lib xizmat qiladi. Aholining turli qatlamlari orasidagi ijobiy munosabatlar va o'zaro hamkorlikni yaxshilash jamiyatda barqarorlikni mustahkamlashga zamin

yaratadi. Bu tushunchalar yordamida jamiyatning turi, rivojlanishi, barqarorligi, iqtisodiy salohiyati, sinflar va sotsial qatlamlarning rivojlanish qonuniyatlari o'rganiladi, olingan natijalar jamiyatni yanada rivojlanishi uchun hayotga tatbiq etiladi. Ijtimoiy stratifikatsiya va ijtimoiy hamkorlikning nazariy asosini o'rganish va bu orqali yoshlarning iqtisodiy-ijtimoiy tarbiyasiga bo'lgan ta'sirni tahlil qilish ijtimoiy gumanitar fanlar oldida turgan vazifalardan biri hisoblanadi. Hayotining barcha epizodlarida inson boshqa odamlar bilan bog'liq bo'lib, insonlar boshqa shaxslar bilan hamkorlikda, qo'shma tadbirlarda ishtirok etishi kerak. Boshqa odamlar bilan bir qator o'zaro munosabatlardan so'ng muayyan munosabatlarga kirishadi. Bu munosabatlar esa shaxs jamiyatning bir qismi ekanligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar:

- [1] «Avesto», 10-bet.
- [2] I.Karimov «Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal»-«O'zbekiston ovozi» 2001 y. 6 noyabr.
- [3] «Avesto», 121-bet.
- [4] «Fozil odamlar shahri» T., 1991 y. 47-bet.
- [5] O'zbek pedagogikasi antologiyasi 1-jild. T., 1995, 36-bet.